



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

2023-2024-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lif tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni qabul qilish hamda umumiy o'rta ta'lif tashkilotlariga yetkazish tartibi to'g'risida

Umumiy o'rta ta'lif tashkilotlari uchun 2023-2024-o'quv yilida chop etiladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarning original, tarjima maketlari va signal nusxalarini tasdiqlash, tegishli nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni belgilangan talablar asosida matbaa sifatini tekshirib, qabul qilib olish hamda qabul qilib olingan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni umumiy o'rta ta'lif tashkilotlariga yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

umumiy o'rta ta'lif tashkilotlari uchun 2023-2024-o'quv yilida chop etiladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualar (keyingi o'rnlarda - darsliklar va O'MM)ni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va O'MMni qabul qilish bo'yicha yo'riqnomalariga 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o'rta ta'lif tashkilotlari uchun 2023-2024-o'quv yilida chop etiladigan darsliklar va O'MMning matbaa sifatini tekshirish hamda nashriyot va matbaa korxonalaridan qabul qilish bo'yicha ekspert guruhi (keyingi o'rnlarda - darsliklar va O'MMni qabul qilish bo'yicha ekspert guruhi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

2023-2024-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lif tashkilotlari uchun chop etilgan darsliklar va O'MMni qabul qilish bo'yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan dalolatnomalariga shakli 3-ilovaga muvofiq;

2023-2024-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lif tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va O'MMni qabul qilish bo'yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan sanoq dalolatnomasi shakli 4-ilovaga muvofiq;

umumiy o'rta ta'lif tashkilotlarining kutubxona jamg'armasiga darsliklar va O'MMni qabul qilish dalolatnomasi shakli 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Darsliklar va O'MMni qabul qilish bo'yicha ekspert guruhiga:

umumiy o'rta ta'lif tashkilotlarining kutubxona jamg'armasi uchun xarid qilinadigan darsliklar va O'MMni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ta'lif muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 28-dekabrdagi 726-sod qarorida belgilangan parametrlarga mos kelishi

yuzasidan “O‘zbekekspertiza” AJning muvofiqlik sertifikati mavjudligini tekshirish;

mazkur buyruqning 3- va 4-ilovalari bilan tasdiqlangan dalolatnomalarni o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

3. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga:

darsliklar va O‘MMning sifatini tekshirish va qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi faoliyatini mazkur buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Yo‘riqnomalar asosida tashkil etish;

“Ta’minot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda - “Ta’minot va logistika xizmati” DUK)ga Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining maktablar kesimida tasdiqlangan taqsimotini o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattarov)ga:

darsliklar va O‘MMning maket va signal nusxalarini nashrga tayyorlash, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash hamda darsliklar va O‘MMning elektron fayllarini chop etish uchun Tender va tanlov savdolarida g‘olib bo‘lgan (yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish asosida chop etadigan) korxonalarga taqdim etish;

Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xusanboyeva) bilan hamkorlikda korxonalar tomonidan chop etilgan darsliklar va O‘MMning sifatini tekshirish, o‘z vaqtida qabul qilish uchun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda tegishli fan metodistlari va amaliyotchi o‘qituvchilar ishtirokini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. “Ta’minot va logistika xizmati” DUK (O‘.Suyarov) darsliklar va O‘MMning hududlarga yetkazilishi bo‘yicha tasdiqlangan taqsimotga asosan vazirlik bilan “Ta’minot va logistika xizmati” DUK o‘rtasida tayyor darslik va O‘MMni matbaa korxonalaridan olib chiqish hamda ta’lim tashkilotlarigacha yetkazish bo‘yicha tuziladigan shartnomani o‘rnatilgan tartibda imzolashga kiritsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) vazirlik va “Ta’minot va logistika xizmati” DUK o‘rtasida tayyor darslik va O‘MMni matbaa korxonalaridan olib chiqish hamda ta’lim tashkilotlarigacha yetkazish bo‘yicha tuzilgan shartnomani g‘aznachilikdan ro‘yxatdan o‘tkazsin hamda o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirsin.

7. “Ta’minot va logistika xizmati” DUK (O‘.Suyarov)ga:

nashriyot-matbaa korxonalarida chop etilib, tayyor holga keltirilgan darsliklar va O‘MMlarni shartnoma asosida olib chiqish, darsliklar hamda O‘MMni “Ta’minot va logistika xizmati” DUKning hududiy bazalariga yig‘ish hamda belgilangan muddatlarda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining viloyatlar kesimidagi tasdiqlangan taqsimoti asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda barcha ta’lim tashkilotlariga to‘liq va sifatli yetkazish;

darsliklar va O‘MMni nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilib olingandan keyin o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

matbaa korxonalaridan qabul qilib olingan darsliklar va O'MMning ta'lif muassasalariga yetkazilishi bo'yicha har kunlik hisobotni vazirlikning O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasiga taqdim etib borish;

hududiy bazalarga yig'ilgan 2023-2024-o'quv yili uchun mo'ljallangan darsliklar hamda O'MMni yong'in xavfsizligiga rioya qilgan holda saqlanishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

har bir umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida darsliklar va O'MMni qabul qilish bo'yicha komissiya faoliyati tashkil etilishini nazorat qilish;

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan yo'riqnomada belgilangan 2023-2024-o'quv yilda chop etiladigan darsliklar va O'MMni qabul qilish tartibini barcha umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida joriy etilishini qat'iy nazoratga olish;

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining darsliklar va O'MMni qabul qilish komissiyalari tarkibini qayta ko'rib chiqish, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etish, darsliklar va O'MMni qabul qilishga doir tegishli hujjatlar hamda ma'lumotlar bilan ta'minlash;

belgilangan talablar asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari kutubxonalarida mavjud bo'lgan darsliklar va O'MM hamda boshqa adabiyotlarni to'liq xatlovdan o'tkazish;

xatlov natijalari hamda o'quvchilar kontingentini tahlil qilgan holda darsliklar va O'MMni sinflar, maktablar, tuman (shahar)lar kesimida qayta taqsimlash vazifalari yuklatilsin.

9. Belgilab qo'yilsinki:

umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining darsliklar va O'MMni qabul qilish komissiyalari faoliyatini nazorat qilish, o'quvchilarni darsliklar bilan to'liq ta'minlash shaxsan ta'lim tashkiloti rahbari zimmasiga yuklatiladi;

darsliklar va O'MMni tegishli matbaa korxonalaridan qabul qilish bo'yicha ekspert guruhi a'zolari belgilangan muddatlarda ish haqi saqlangan holda mazkur buyruq bilan belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun jalb etiladi.

10. Axborot xizmati (D.Sobirova) buyruqning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirib borish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borsin.

11. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda departament, boshqarma va bo'limlar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalarga yetkazilishini ta'minasin.

12. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinosasi U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2023-yil 8-may,
120-son



X.Umarova

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
1-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA**

Mazkur Yo‘riqnoma umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualar (keyingi o‘rinlarda – darsliklar va O‘MM)ning maket hamda signal nusxalarini tasdiqlash, matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va O‘MMni nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoida

1. Darsliklar va O‘MMni tasdiqlash, nashriyot-matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va O‘MMni nashriyot hamda matbaa korxonalaridan qabul qilish, ularni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Respublika ta’lim markazi (keyingi o‘rinlarda – RTM) tomonidan darsliklar va O‘MMni **tasdiqlash** va vazirlik tomonidan foydalanishga **tavsiya etish**;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) yoki uning vakolat berilgan tashkilotlari bilan tegishli nashriyot-matbaa korxonalari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda (keyingi o‘rinlarda – shartnoma) belgilangan talablar asosida tayyorlangan darsliklar va O‘MMning matbaa sifatini tekshirib **qabul qilib olish** va umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga **yetkazish**;

joylarga yetkazib berilgan darsliklar va O‘MMni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tomonidan **qabul qilib olish**.

2. Mazkur yo‘riqnoma quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

original maket – ilk nusxa, nashr va qayta nashr etish uchun asos bo‘lgan darslik mакети, boshqa tilga tarjima qilishga asos bo‘lgan matn;

signal nusxa – chop etishga tayyor holga keltirilgan darslikning ilk nusxasi;

texnik tafsilot – darsliklarni chop etishga bo‘lgan majburiy o‘lcham me’yorlari;

tavsiya etish – ma’qullash;

tasdiqlash – topshiriladigan darsliklarning original va tarjima mакетини O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi direktori, birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, Respublika ta’lim markazining nashr ishlari bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i, tegishli fan bo‘yicha bo‘lim boshliqlari, metodist-mutaxassislari hamda ekspertlar guruhi, muallif(lar), muharrir, musahhih, tarjimon, bosh rassom-dizayner, texnik-muharrir

tomonidan ko'rib chiqilib, imzo bilan tasdiqlanishi va vazirlik tomonidan nashrga tavsiya etilishi;

nuqsonli (brak) mahsulot – darsliklar va O'MMlarning chop etishga qo'yilgan talablar (me'yorlar)ga mos kelmaydigan, foydalanishga yaroqsiz holda tayyorlangan mahsulot.

2-bob. Darsliklar va O'MMni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish tartibi

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-fevraldaggi 108-sun qarorlariga muvofiq Respublika ta'lim markaziga muallif va tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik majmualarning yagona maketlarini yaratish vakolati berilganligini inobatga olib, darsliklar hamda O'MMning (original va tarjima) rangli maketlari RTM tomonidan nashrga tayyorlanib, markazning fan yo'naliislari bo'yicha Ilmiy-metodik kengash yig'ilishlarida atroflicha muhokamadan o'tkazilib, yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etiladi. Maketlar RTMning tegishli fan metodistlari, mualliflar, muharrir, musahhih, tarjimon, bosh rassom-dizayner, texnik-muharrirlar tomonidan betma-bet imzolanadi, RTM direktori va uning o'rinnbosarlari, nashr ishlari bo'yicha va tegishli bo'lim boshliqlari hamda metodist-mutaxassislar (ekspertlar) tomonidan ko'rib chiqilib, imzolar bilan tasdiqlanadi.

4. RTM o'rnatalgan tartibda **tasdiqlangan maketlarni** vazirlikka rasmiy xat bilan taqdim etadi. Ushbu maketlar vazirlik tomonidan (lozim bo'lganda mutaxassislar jalb etilgan holda) saylanma tarzda ko'rib chiqilishi mumkin, maketlarda xato-kamchiliklar aniqlangan taqdirda, maketlar RTMga qayta ishslash uchun qaytariladi.

5. Darsliklar va O'MMlarni chop etish uchun vazirlik bilan (to'g'ridan-to'g'ri) shartnoma tuzadigan (yoki tender, tanlov va auksion savdolari g'oliblari bo'lgan) nashriyot-matbaa korxonalariga darsliklar va O'MMning chop etishga tayyor holdagi elektron (ishchi) fayllari RTM tomonidan taqdim etiladi. (Nashriyot-matbaa korxonalari tomonidan darsliklar va O'MMning elektron (ishchi) fayllarida mazmunga doir yoki texnik xato-kamchiliklar, nuqsonlar aniqlangan taqdirda, (ishchi) fayllar RTMga rasmiy xat bilan qaytariladi. RTM aniqlangan xato-kamchiliklar, nuqsonlarni o'z hisobidan bartaraf etilishini ta'minlaydi va korxonaga rasmiy xat bilan chop etishga tayyor holda qayta taqdim etadi.

6. Darsliklar va O'MMlarni chop etish bo'yicha shartnoma imzolangan nashriyot-matbaa korxonalari tomonidan darsliklar va O'MMning 3 dona rangli signal nusxasi tayyorlanib, mazkur Yo'riqnomaning 3-bandida ko'rsatilgan tartibda tasdiqlanadi.

7. RTM va nashriyot-matbaa korxonalari tomonidan o'rnatalgan tartibda tasdiqlangan darsliklar va O'MMning signal nusxalari vazirlikka taqdim etiladi hamda vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan chop etishga ruxsat etilib, foydalanishga tavsiya qilinadi.

8. Ushbu tartibda tasdiqlanmagan darsliklar va O'MMlarni chop etish mumkin emas.

9. Darsliklar va O'MMlarning o'quv dasturlariga mosligi, mazmunida va texnik jihatdan xato-kamchiliklar bo'lmasligiga RTM mas'ul hisoblanadi.

3-bob. Darsliklar va O‘MMni qabul qilib olish va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazish tartibi

10. Darsliklar va O‘MMni shartnomada belgilangan talablar asosida matbaa sifatini va shartnoma shartlarining to‘liq ta’minlanganligini aniqlash maqsadida darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi (keyingi o‘rinlarda – ekspert guruhi) shakllantiriladi.

11. Ekspert guruhi tarkibiga vazirlikning tegishli boshqarma va bo‘limlari xodimlari, RTM va boshqa ta’lim muassasalari mutaxassislari hamda amaliyotchi o‘qituvchilar jalg etiladi.

12. Nashriyot-matbaa korxonalarini tomonidan vazirlikka darsliklar va O‘MM tayyor bo‘lganligi haqida yozma ma’lumot taqdim etilganidan so‘ng, uch kun muddat ichida ekspert guruhi yuboriladi.

13. Darsliklarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrdagi “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 726-son qarorida belgilangan parametrlarga mos kelishi yuzasidan muvofiqlik sertifikati va bunga mas’ul idora “O‘zbekekspertiza” AJ tomonidan berilgan xulosalar asosida amalga oshiriladi.

14. Ekspert guruhi tomonidan darsliklar va O‘MMning matbaa hamda butlash sifatini tekshirish mahsulotning tayyor bo‘lgan qismi bo‘yicha amalga oshiriladi.

15. Ekspert guruhi darsliklar va O‘MMning matbaa sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha tekshirishni darsliklar va O‘MMni nashr etish shartnomasida belgilangan talab va texnik tafsilotlar asosida amalga oshiradi va tekshirish natijalari bo‘yicha dalolatnomalar 3-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

16. Tanlab olish natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrdagi “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 726-son qarori bilan tasdiqlangan Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentida belgilangan ta’lim muassasalari uchun bosma mahsulotlarni qabul qilish bo‘yicha namuna olish me’yorlariga to‘g‘ri keladigan darsliklar soni qabul qilib olish sonidan kichik yoki unga teng bo‘lsa, darsliklar va O‘MM qabul qilinadi, tanlab olish talablariga to‘g‘ri kelmaydigan darsliklar va O‘MM soni nuqsonli (brak) mahsulotlar sonidan ko‘p yoki teng bo‘lsa yaroqsiz hisoblanadi va partiya qaytariladi.

Darsliklar va O‘MMni butlash sifati shartnomada belgilangan talablar asosida tekshiriladi. Bunda, darsliklar va O‘MMning bir o‘ramdagisi miqdori tekshiriladi.

17. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan sanoq dalolatnomalari 4-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

18. Ekspert guruhining ijobjiy xulosasiga asosan tegishli nashriyot-matbaa korxonasi darsliklar va O‘MMni vazirlik tomonidan imzolangan shartnoma asosida “Ta’midot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasiga topshiradi.

19. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining darsliklar va O‘MMni olib ketish to‘g‘risidagi xatiga asosan “Ta’midot va logistika xizmati” Davlat unitar

korxonasi 5 kun muddatda tayyor mahsulotlarni olib chiqadi, 15 kun muddatda taqsimot asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarga hamda 30 kun muddatda barcha ta’lim tashkilotlariga to‘liq va sifatli yetkazadi.

20. “Ta’midot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi tomonidan darsliklar va O‘MM nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilib olingandan keyin 3 kun muddatda hisob-fakturalarni vazirlikning Moliyalashtirish va buxgalteriya hisobi bo‘limiga, haftada bir marta nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilib olingen darsliklar va O‘MMning ta’lim tashkilotlariga yetkazilishi bo‘yicha hisobot hamda nashriyot-matbaa korxonalaridan darsliklar va O‘MMni olib chiqish bo‘yicha kunlik ma’lumotni vazirlikning O‘quv jarayonini metodik ta’minalash va darsliklar boshqarmasiga taqdim etib boradi.

21. O‘quv jarayonini metodik ta’minalash va darsliklar boshqarmasi darsliklar va O‘MMning qabul qilinishi va joylarga yetkazilishi yuzasidan ma’lumotlarni tahlil qilgan holda vazirlik rahbariyatiga kiritib boradi.

22. Yetkazib berilgan darsliklar va O‘MMni qabul qilib olish uchun har bir umumiyo‘rtta ta’lim tashkilotlarda darsliklar va O‘MMni qabul qilish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – komissiya) tuziladi.

23. Komissiya a’zolari yetti kishidan kam bo‘limgan, toq sondan iborat tarkibda umumiyo‘rtta ta’lim tashkiloti direktori, uning o‘quv yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘ribbosari, umumta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari, kutubxonachisi, o‘quvchilarining ota-onalari (qonuniy vakillari) kiritilgan holda maktab direktori buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Komissiya a’zolari tomonidan umumiyo‘rtta ta’lim tashkilotlariga yetkazilgan darsliklar va O‘MMning bir o‘ramdagi sonini aniqlash, ularning o‘ramini buzmasdan bir chekkasi yirtilgan holda sanab chiqish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

25. Darsliklar va O‘MM soni bo‘yicha dalolatnomma mazkur buyruqning 5-ilovasida keltirilgan sanoq dalolatnomasining namunaviy shakli asosida rasmiylashtiriladi.

26. Darsliklarning miqdori tekshirilganidan so‘ng Komissiya a’zolari umumiyo‘rtta ta’lim tashkilotlariga qabul qilinayotgan har bir darslikni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining 2014-yil 20-martdaggi 14, 25, 15qq va 08-05-04-sonli qarori bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2014-yil 28-aprelda 2577-sodan bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan) “Umumta’lim maktablarini darsliklar va O‘MM bilan ta’minalash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning 13-ilovasiga muvofiq nashr sifati ko‘rsatkichlari va matbaa ijrosi talablariga mosligi bo‘yicha tekshirishni amalga oshiradilar.

27. Agar tekshirish jarayonida birorta darslik yoki O‘MMda kamchilik aniqlansa, ushbu darsliklar yoki O‘MM qabul qilinmasdan “Ta’midot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi uning filiallari orqali tegishli nashriyot-matbaa korxonalariga qaytarib yuboriladi.

28. “Ta’midot va logistika xizmati” DUK nuqsonli (brak) darslik va O‘MMni dalolatnomma asosida tegishli nashriyot-matbaa korxonalariga almashtirib berish uchun qaytarib beradi.

4-bob. Yakuniy qoida

29. Mazkur Yo‘riqnomalarini buzgan shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralari ko‘riladi.

30. Ushbu Yo‘riqnomada aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va mакtab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
2-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan
darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning matbaa sifatini tekshirish hamda nashriyot-
matbaa korxonalaridan qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi**

TARKIBI

(Namunaviy shakli)

1-Ekspert guruhi tarkibi

(umumta’lim maktablari uchun)

T/r	Lavozimi
1.	Vazirlikning O‘quv jarayonini metodik ta’minalash va darsliklar boshqarmasi xodimi, guruh rahbari
2.	Respublika ta’lim markazining tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha metodisti, a’zo
3.	Respublika ta’lim markazining metodisti, a’zo
4.	Amaliyotchi o‘qituvchi, a’zo
5.	“Ta’minot va logistika xizmati” DUK darsliklar bo‘yicha mutaxassisi, a’zo

2- Ekspert guruhi tarkibi

(Alohibda ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar maktab va maktab-internatlari uchun)

T/r	Lavozimi
1.	Vazirlikning O‘quv jarayonini metodik ta’minalash va darsliklar boshqarmasi xodimi, guruh rahbari
2.	Respublika ta’lim markazi Inklyuziv va maxsus pedagogika bo‘limi metodisti, a’zo
3.	Respublika ta’lim markazining metodisti, a’zo
4.	Amaliyotchi o‘qituvchi, a’zo
5.	“Ta’minot va logistika xizmati” DUK darsliklar bo‘yicha mutaxassisi, a’zo

Izoh: Bir nechta nashriyot-matbaa korxonalarida bir paytda darsliklarni qabul qilish kerak bo‘lgan hollarda qo‘srimcha ravishda 2 yoki 3 ta ekspert guruhlari tashkil etiladi.

Nashriyot-matbaa korxonalarida chop etilgan darsliklar va O‘MMlarni ta’lim tillari, sinfi, nomi va soniga qarab ekspert guruhi tarkibiga qo‘srimcha ravishda mutaxassislar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va mактаб та’лими
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
3-ILOVA

**2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etilgan
darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi
tomonidan rasmiylashtiriladigan dalolatnomasi**

2023-yil ____ - _____.
Maktabgacha va mактаб та’лими vazirligining Darsliklarni qabul qilish bo‘yicha ekspert
guruhi a’zolari:

bir tomondan ijrochining vakillari:

ikkinchi tomondan _____ 2023-yil
“_____” _____ da

(nashriyot yoki bosmaxona nomi)
bilan imzolangan ____-sonli shartnomasiga asosan tayyorlangan mahsulot sifati
tekshirish haqida ushbu dalolatnomani tuzdilar:

1. “O‘zbekekspertiza” AJ tomonidan berilgan 2023-yil _____ dagi ____-sonli muvofiqlik
sertifikati

2. Umumiy ma’lumot:

T/r	Darslik va o‘quv-metodik majmualar nomi	Buyurtma raqami	Nashr nusxasi	Tekshirilgan mahsulot nusxasi

3. Butlash sifati va mahsulot miqdori:

Darslik va o‘quv-metodik majmualar nomi	Bir o‘ramda bo‘lishi zarur bo‘lgan darsliklar soni	Tekshiruv natijasidagi ko‘rsatkichlar	O‘ramning sifati

4. Tayyor mahsulotning sifati bo‘yicha e’tirozlar:

T/r	Nuqson va kamchiliklar nomi	Kamchiliklar mavjudligi	Kamchiliklar mavjud mahsulot soni
1.	Ranglarning aniq ajratilmaslik holatlari		
2.	Teskari bo‘lib qolgan, o‘tkazib yoki chalkashtirib yuborilgan sahifalar, ulardagи sarlavhalar, harflar va belgililar, matn yoki illyustratsiyalarning teskari joylashib qolishi, daftarlardagi betlarning noto‘g‘riligi		

3.	Blok elementlarining butlanmaganligi, ketma-ket emasligi, begona, teskari, chalkashib ketganligi, ortiqcha va yetmay qolgan varaqlar, ilovalar, orasiga yopishtirilgan qog'ozchalar mavjudligi
4.	Chop etilmagan sahifalar mavjudligi, maqsadli qoldirilgan oq sahifalar bundan mustasno
5.	Blokdagi matn yozuvlari va illyustratsiyadagi nuqsonlarga (tasvir elementlarini tushirib qoldirish), "oqarib qolgan muhr", bo'yoq purkash, surkalib ketishi, bo'yoq yig'ilib qolgandagi dog'lari, izlar, qatma-qat muhrlar, makulatura qog'ozlari holati
6.	Muqova va muqova jildidagi illyustratsiyalar yoki yozuvlardagi nuqsonlar: bo'yoq surkalishi, folgada tasvir elementlarini o'tkazib yuborish holati
7.	Sahifadagi illyustratsiyalar yoki matn bo'laklarini tushirib qoldirish ("kesib" tashlangan matn, hoshiya yoki illyustratsiyalar)
8.	Muqova yoki muqova jildiga blokni noto'g'ri qo'yish: blok teskari qo'yilganligi, "begona" blok qo'yilganligi
9.	Muqova jildi chegarasidan blokning surilib chiqish holati
10.	Mexanik shikastlar: muqova, muqova jildi, betlarning yirtilganligi yoki iflosligi
11.	Tasmalarni bosib chiqishdagi nuqsonlar, tasmalarning qavatma-qavatligi va o'pirilishi
12.	Blok elementlarining tushib qolishiga olib keladigan nuqsonlar: bloklarda tikilmay qolgan betlar mavjudligi, blok yorilishi, halqaning tushib qolish holati
13.	Muqovadan yoki muqova jildidan blokning tushib qolish holati
14.	Blok, muqova jildi shaklining o'zgarishi
15.	Darsliklar va O'MM varaqlaridan unumli foydalanmaslik, katta hoshiyalar tashlash
16.	Materialning xira chop etilishi
17.	Noto'g'ri falsovka qilinishi
18.	Muqova uchun ishlatiladigan qog'ozning eniga qarab bichilishi
19.	Blokning ichkarisiga yoki chetiga yelim tomizib yuborilishi, betlarni qayta yelimlash va matnning buzilishi yoki illyustratsiyalarni olib tashlash holati
20.	Forzasning blokdan butun sahifa bo'yicha yelimlanmasdan qolishi, forzasning egilishida uzilib qolish holati
21.	Koreshokning kitob blokiga yelimlanish jarayonida yelimning bir tekisda surilmasligi va natijada koreshokning yirtilishi hamda g'ijimlanishi
22.	Yelimning belgilangan miqdordan oshib ketishi
23.	Plyonkaning muqovaga to'liq pripressoqva qilinmaslik
24.	Bigovkaning to'liq yoki qisman yelimlanmaslik holatlari

25.	Burchaklarning 90 gradus ostida to‘g‘ri qirqilmasligi va o‘tmas uskuna yordamida qirqilganligi uchun kitobning chetlari tekis bo‘lmaslik holatlari		
26.	Bigovkaning belgilangan o‘lchamda qo‘yilmaganligi yoki umuman yo‘qligi		
27.	Matn blokida qisman yirtilish va g‘ijimlanish holatining mavjudligi		
<i>Jami aniqlangan kamchiliklar:</i>			

Ekspert guruhi a'zolari, F.I.SH.	Imzo

Tegishli nashriyotlar yoki matbaa korxonalari vakillari, F.I.SH.	Imzo

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
4-ILOVA

**2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etiladigan
darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi tomonidan
rasmiylashtiriladigan sanoq
dalolatnomasi**

2023-yil _____

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Darsliklarni qabul qilish guruhi a’zolari:

bir tomonidan ijrochining vakillari:

ikkinchi tomonidan “Ta’minot va logistika xizmati” DUK ning 2023-yil “___”-da

(nashriyot yoki bosmaxona nomi)

bilan imzolangan ____-sonli shartnomasiga asosan tayyorlangan mahsulot sonini tekshirish haqida ushbu dalolatnomani tuzdilar:

Haqiqatdan ham 2023-yil _____ kuni

(nashriyot yoki matbaa korxonasi nomi)

ombori tekshirilganda quyidagi mahsulot bog‘amlarga olingan holda tayyorligi aniqlandi:

T/r	Darslik nomi	Sinf, ta’lim tili	Soni	Bir dona darslik og‘irligi (gramm)	Shartnomarraqami	Muvofiqlik sertifikati raqami, sanasi

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish komissiya a’zolari tomonidan jami _____ nomda _____ nusxa darsliklar partiyasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrdagi “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 726-son qarori bilan tasdiqlangan Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentida belgilangan parametrlerga mos kelishi aniqlandi.

“O‘zbekekspertiza” AJ tomonidan berilgan 2023-yil _____ dagi ____-sonli muvofiqlik sertifikati ilova qilinadi.

Ekspert guruhi a’zolari, F.I.SH.	Imzo

Tegishli nashriyot yoki matbaa korxonalari vakillari, F.I.SH.	Imzo

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydag‘i
120-son buyrug‘iga
5-ILOVA

**Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasiga darsliklar
va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish
DALOLATNOMASI***

_____ tuman (shahar) 2023-yil _____

bir tomonidan _____ tumani (shahri)dagi ____-sonli umumiy o‘rta ta’lim
maktabining darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish komissiyasi a’zolari:

ikkinchi tomondan “**Ta’midot va logistika xizmati**” Davlat unitar korxonasi hududiy filiali
xodimlari:

2023-yil “____” ____da umumiy o‘rta ta’lim maktabiga yetkazilgan darsliklar va
o‘quv-metodik majmualarning soni va sifatini tekshirib, qabul qilish haqida ushbu
dalolatnomani tuzdilar:

Haqiqatdan ham 2023-yil ____ kuni “**Ta’midot va logistika xizmati**” Davlat unitar
korxonasi hududiy filiallari tomonidan quyidagi darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni
____-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga yetkazilganligi aniqlandi:

T/r	Darslik nomi	Sinfi	Ta’lim tili	Soni

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining darsliklar va O‘MMni qabul qilish komissiyasi a’zolari, F.I.SH.	Imzo
“Ta’midot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi hududiy filiali xodimlari, F.I.SH.	Imzo

* Izoh: *Qabul qilish komissiyasi nuqsonli (brak) darslik va O'MMlarni almashtirib berish uchun “Ta'minot va logistika xizmati” DUKning hududiy filialiga dalolatnomaga asosida qaytarib beradi. “Ta'minot va logistika xizmati” DUKning hududiy filiali nuqsonli (brak) darslik va O'MM larni mакtabdan olib ketadi va tegishli nashriyot-matbaa korxonasiiga yetkazib, nuqson sиз darslik va O'MM larga almashtirib berilishini ta'minlaydi.*